

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“ATROF MUHIT HIMOYASI VA EKOLOGIYA” KAFEDRASI**

**EKOLOGIYADA GEOGRAFIK AXBOROT  
TIZIMLARI**

**FANIDAN  
MA‘RUZA MATNLARI**

**Qarshi – 2022 yil**

**Tuzuvchi: t.f.d. Eshonqulov R.A.**

**Taqrizchi: Urganch davlar universiteti, Geografiya kafedrasida dotsent, g.f.n, Matjonov M.J.  
QarMII Konchilik ishi va geodeziya kafedrasida katta o'qituvchisi G'ofirov M.J.**

Ushbu ma'ruza matnlari to'plami QMII "AMH va E" kafedrasida yig'ilishida (Bayonnoma № \_\_\_\_ " \_\_\_\_ " \_\_\_\_ 20\_\_ y.), Geologiya va konchilik ishi fakulteti uslubiy komissiyasida (Bayonnoma № \_\_\_\_ " \_\_\_\_ " \_\_\_\_ 20\_\_ y.), institut uslubiy Kengashida (Bayonnoma № \_\_\_\_ " \_\_\_\_ " \_\_\_\_ 20\_\_ y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

# MUNDARIJA

1 - mavzu: Kirish. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishda GAT texnologiyalari ahamiyati. ....	3
2. Geografik Axborotlar Tizimlari (GAT) va uning asosiy xususiyatlari....	7
3-mavzu: GAT ni tashkiliy qismlari va ishlash uslublari. ....	12
4-mavzu. GAT orqali bajarish mumkin bo‘lgan geografik amallar va uni afzalliklari. ....	18
5-mavzu. Fazoviy tushunchalar va ikki o‘lchamli modellar. ....	25
6-mavzu. Geografik axborot tizimlari ma’lumotlar ....	29
7-mavzu. Geografik axborot tizimlari va uni geometrik o‘lchov usullari .	35
8-mavzu. Ko‘rinishning uzluksizlik va diskret tushunchalari (tashqi fazoviy modellar).....	43
9-mavzu. Ko‘rinishning uzluksizlik va diskret tushunchalari vektor va raster geo-axborot ma’lumotlar ....	47
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	62
NAZORAT UCHUN UMUMIY SAVOLLAR .....	63
GLOSSARIY .....	64

## **1 - mavzu: Kirish. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishda GAT texnologiyalari ahamiyati.**

Reja:

1. GATni inson hayotdagi o‘rni
2. Kartalar haqida umumiy ma’lumotlar
3. Masofadan suratga olish (Remote sensing) haqida qisqacha ma’lumotlar

GAT bu avvalombor planetamizda sodir bo‘layotgan voqea hodisalarni va fazoviy ma’lumotlarni tahlil qilish hamda deyarli har handay sohada qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish uchun yordam beradigan kartalar yaratish uchun xizmat qiladigan zamonaviy komp‘ter texnologiyasidir. GAT ni hozirgi kunda zamonaviy komp‘yuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas, qanchalik tez kompyuter dasturlari rivojlanar ekan shunchalik tezlik bilan GAT ham rivojlanib boradi. GAT orqali amalga oshiriladigan har qanday amaliy tahlillarni barchasi kompyuter dasturlari orqali amalga oshiriladi. GAT orqali biz ma’lumotlarni so‘rash, fazoviy ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni birlashtirish, ularni vizualizatsiya qilish, mavjud ma’lumotlardan yangi ma’lumot yaratish va boshqa turli tuman muammolarni hal qilish mumkin. Masalan, fazoviy ma’lumotlarni tahlil qilish yoki kartalar yaratish qandaydir bir yangilik emas albatta, insoniyat paydo bo‘libdiki, u o‘zini hayotini yaxshilash maqsadida turli tuman kartalar yaratib kelmokda, biroq bu kabi kartalar yaratish va fazoviy ma’lumotlarni tahlil qilish GAT da amalga oshiriladigan funktsiyalardan farq qiladi. Farqi shundaki, GATda zamonaviy kompyuter dasturlari orqali fazoviy ma’lumotlarni tahlil qilish va kartalar yaratish jarayoni keskin tezlashadi va oxirgi pirovard natija ham sifatli bo‘lishi aniq. GAT orqali biz qaror qabul qilish jarayonini keskin ravishda operativlatish imkoniga ega bo‘lamiz, xususan prognozlashtirish, bir necha xil ma’lumotlar bazasini bir vaqtini o‘zida tahlil qilish, tezlashadi.

Kartalar yaratishning “**Qog‘ozli**” deb atalgan odatdagi texnologiyasi bilan bir qatorda keyingi yillarda Geografik axborot tizimidan (**GAT**, keyinchalik umumiy qabul qilingan iborada **GAT** so‘zi ishlatiladi) foydalangan holda kartalar yaratishning kompyuterli texnologiyasi jadal suratlar bilan rivojlanmoqda.

Oddiy qilib aytganda, GATga tabiat va jamiyat obyektlari va hodisalari haqidagi topografik, geodezik, er, suv resurslari va boshqa kartografik axborotni yig‘ish, ularga ishlov berish, EHM xotirasida saqlash, yangilash, tahlil qilish, yana qayta ishlashni ta‘minlovchi avtomatlashtirilgan apparat-dasturli kompleks, deb ta‘rif bersa bo‘ladi.

Barcha GATlarda ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, xotirada saqlash, yangilash, tahlil qilish va ma’lumotlarni kompyuter yoki etarli darajada tasvir xususiyatini qayta ishlay oladigan maxsus dasturli texnik vositalar orqali ushbu jarayonlarni bajarish usullari e‘tiborga olingan. Demak, GAT — turli usullar bilan to‘plangan tabiiy tarmoqlar haqidagi keng mazmunli ma’lumotlar bazasiga tayangan mukammal rivojlangan tizim hisoblanadi.

Hozirgi paytda foydalanish sohalarining kengligi jihatidan GATning tengi yo‘q — u navigatsiya, transport, qurilish, geologiya, geografiya, harbiy ishlar, iqtisodiyot, ekologiya, mavzuli kartografiya va boshqa sohalarda keng qo‘llanilmoqda.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyatda ko‘plab GATlar ishlatilib, ular orasida shaxsiy GATlar keng tarqalgan. Jumladan ularga GeoDraw GeoGraph, (Geografiya instituti, Rossiya), AtlasGAT va WinGAT (AQSH), ArcInfo, MapInfo (AQSH) va boshqa dasturlarni keltirish mumkin.

Umuman olganda kartalar yaratishning GAT-texnologiyasini quyidagicha tasavvur qilsa bo‘ladi:


1. Tayyorgarlik ishlari. Elektron taxeometrlar va GPS asboblaridan; tasvirlarni qayta ishlash vositalaridan; izlanishlar raqamli ma’lumotlaridan; avtorlik originallardan; mavjud fond kartalari va h.k. dastlabki materiallarni to‘plash. Kartografik va fond materiallarini skanirlab, rastri tasvirlarni bir xil masshtabga keltirish, so‘ngra ularni kompyuter xotirasiga joylash.

2. Yaratilayotgan kartaning mavzuli qatlamlarini va ularga jadvallarni tuzish, ularni tahlil qilish. Ma’lumotlar bazasini tuzish.

3. Obyektlar tasnifi mavjud jadval (atributlar) va matn ma'lumotlarni EHM xotirasiga kiritish.
4. Shartli belgilar tizimini ishlab chiqish.
5. Kartaning mavzuli qatlamlarini joylashtirish, kartografik tasvirni hosil qilish va ularni tahrir qilish.
6. Kartaning komponentlarini ishlab chiqish va uni nashrga tayyorlash.
7. Kartani nashr qilish.

GAT real olam to'g'risidagi ma'lumotlarni tematik qatlamlar to'plami ko'rinishida saqlaydi. Bu ma'lumotlar bir-biri bilan geografik joylashuv asosida birlashtirilgan, bog'langan bo'ladi. Bu oddiy, biroq juda qulay, va ixcham yondashish yoki usul, turli masalalarni echishda o'zining naqadar to'g'riligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunga kelib, halq xo'jaligining deyarli barcha tarmoqlarida Geografik Axborot Tizimlaridan keng foydalanilmoqda. Xususan, suv xo'jaligida: suv yo'llarini o'rganish, suvni boshqarish, suvni taqsimlash, suvni sho'rlanish darajasini o'rganish, suvni organik va kimyoviy tarkibi suv osti hayvonlarini o'rganish, suv o'zanini o'zgartirish, suv toshqinlarini oldini olish, kanallarni avtomatizatsiya qilish, o'rmon xo'jaligida: barcha tirik jonizotni emigratsiya va imigratsiyasini o'rganish, o'rmon yong'inini oldini olish, barcha o'simlik dunyosini joylashishi bo'yicha o'rganish, ularni rivojlanishi va x.k, qishloq xo'jaligida, yerni sho'rlanishi, yerni kimyoviy tarkibi, qishloq xo'jaligi ekinlarini rivojlanish sikli, o'simliklarni suv ichish jarayoni, o'simliklarni kasalligini o'rganish va h.k.



1.1-rasm. Geoaxborot tizimining shakliy loyihasi (manba: Muxtorov O'.B. va boshq., 2017)

Geografik axborot tizimlari fani kompyuter texnologiyari, dasturlarni rivojlanishi bilan keskin bog'liq. Shuningdek matematika, fizika, biologiya va kimyo fanlari bilan ham bog'liq. Masalan, masofadan turib ma'lumot yig'ishni (Remote Sensing) rivojlanishi kosmonavtikani rivojlanishiga bog'liq.

GATning eng katta yutug'i bu geografik axborotni o'zini, yoki geografik obyektga bog'liq bo'lgan istalgan boshqa axborotni (atributiv axborotni) yaqqol ko'rsatib berishidir. Atributiv

axborotni ko'rsatib berishning usullari turlicha: Bu datchikdan olingan sonlar, obyektlar to'g'risidagi axborotlar bazasining jadvali, obyektlarning rasmlari, yoki videotasvir bo'lishi mumkin.

Havodan suratga olish tizimlari elektromagnit spektrning ko'rinuvchan va infraqizil qismlarida ishlaydi. Ular «to'plam tizimlari» funktsiyasi kabi, ya'ni shuni ifodalaydiki ikki o'lchamli surat bir yolgiz qisqa vaqtda shakllanadi. Fotografik to'lqin uzunligi regioni asosan 0,3 dan 0,9  $\mu\text{m}$  (mikrometr) oraliqda o'zgarib turadi. Radiatsiya (yer yuzidagi obyektlardan aks etadigan) yorug'lik sezuvchi qatlam tegadi optika tizimi (kamera) orqali. Bu qatlam yoki «qavat» fotografik qabul qilgich kabi harakat qiladi.

Sun'iy yo'ldoshni aylanib utgan yo'li uning orbitasi deyiladi. Sun'iy yo'ldoshlarning orbitalari ularga olib yuradigan sensorlarni imkoniyati va vazifalariga qarab tanlanadi. Orbitani tanlanishi balandlik (ularning balandligi ularning yer yuzasidan hisoblanadi) birligida turli bo'lishi mumkin va ularning orientatsiyasi va aylanishi yerga bog'liq. Sun'iy yo'ldoshlar yuqori balandlikda, ya'ni hamma vaqt yer yuzasini o'xshash qismini ko'rish da geostatsionar orbitasi mavjud. Bu geostatsionar sun'iy yo'ldoshlar, taxminan 36000 km balandlikda, yer aylanishi buyicha aylanadi. Shunday ekan stasionarga uxshaydi, yer yuzasiga bog'liq. Bu sun'iy yo'ldoshlarni maxsus hududdan davomli axborotlarni kuzatish va to'plashni imkon beradi. Iqlim va sun'iy yo'ldoshlar aloqalarida asosan shunday tip orbitalari bor. Ularning yukori balandliklariga bog'liq holda, ba'zi geostatsionar iqlim sun'iy yo'ldoshlari yer yuzasining iqlimi va qoplangan bulutlarni monitoringi o'tkazishi mumkin.

Mikroto'lqinli urganish masofadan obyektlarni urganishning ikkala aktiv va passiv shakllarini qamrab oladi. Masofadan zondlash mavzusida keltirilganidek, spektrning mikroto'lqin qismi tulqin uzunligida taxminan 1 sm dan 1 metrgacha o'ulqin uzunligini qoplaydi. Chunki ularning uzun to'lqin uzunligi, ko'rinuvchi va infraqizil nurlar bilan taqqoslaganda, mikroto'lqinlarda maxsus xususiyatlari bor, ya'ni ular masofadan obyektlarni o'rganishda muhimdir. Mikroto'lqin radiatsiyasining uzunroq to'lqin uzunliklari bulut, tuman, chang orqali o'tishi mumkin va barcha ogir eng og'ir yomgir zarrachalari uzunroq to'lqin uzunliklari kabi atmosfera tarqatishda foydalanib bo'lmaydi ya'ni qisqaroq optik to'lqin uzunliklariga ta'sir etadi.

#### GATni rivojlanish tarixi

GAT tarixi o'tgan yuz yillikning elliginchi yillari oxiridan boshlanadi. Ellik yil mobaynida bir nechta bosqichlar bosib o'tildi, ular mustaqil amal qiluvchi sohani – geoaxborot texnologiyalari sohasini yaratish imkoniyatini berdi. Geoaxborot kartografiyasida asosiy yutuqlar AQSh, Kanada va Yevropada qo'lga kiritildi. Rossiya va MDH davlatlari geoaxborot texnologiyalarini yaratish va rivojlantirishning dunyoviy jarayonida 1980 -yillarga qadar ishtirok etmadi. Geoaxborot tizimlarining rivojlanish tarixida to'rtta davr ajratiladi:

#### **Novatorlik davri (1950- yillar oxiri – 1970-yillar boshi)**

□ axborot tizimlarining, chegaradosh ilmlar va texnologiyalarning prinsipial imkoniyatlarini tadqiq qilinishi, empirik tajriba olinishi, birinchi yirik loyihalar va nazariy ishlar.

#### **Davlat ta'siri davri (1970- yillar boshi – 1980-yillar boshi)**

davlat tomonidan moliyalanadigan yirik geoaxborot loyihalarining rivojlantirilishi, geoinformatika sohasida davlat institutlarining shakllantirilishi, ayrim tadqiqotchilar va katta bo'lmagan guruhlar rolining va ta'sirining pasayishi.

#### **Tijoratlashtirish davri (1980- yillar boshi – hozirgi vaqt)**

□ turli-tuman dasturiy vositalarning keng bozori, stol usti instrumental GAT larining rivoj topishi, ularning qo'llanish sohasining atributiv ma'lumotlar bazalari bilan integrastiyalash hisobiga kengaytirilishi, tarmoq ilovalarining yaratilishi, ko'p sonli noprofessional foydalanuvchilarning paydo bo'lishi, alohida kompyuterlarda ma'lumotlarning individual to'plamlari bilan ishlaydigan va korporativ va taqsimlangan geoma'lumotlar bazalari bilan ishlaydigan tizimlarning tashkil qilinishi.

#### **Iste'mol davri (1980- yillar boshi – hozirgi vaqt)**

geoaxborot texnologiyalari va xizmatlarining tijoratchi ishlab chiqaruvchilari o'rtasida kuchaygan raqobat kurashi GATlar foydalanuvchilariga afzalliklar beradi, dasturiy vositalarning hammabopligi va "ochiqligi" foydalanuvchilarga dasturlarni o'zlari sozlash, moslashtirish, qo'llash va hatto

modifikastiyalash imkoniyatini beradi, foydalanuvchilar “klublari”, telekonferenstiyalar, foydalanuvchilarning hududan tarqoq, lekin yagona tematika bilan bog`langan guruhlarining paydo bo`lishi, geografik ma`lumotlarga bo`lgan ehtiyojning o`shishi, geoaxborot infrastrukturasi sayyora miqyosida shakllana boshlashi.

## **2. Geografik Axborotlar Tizimlari (GAT) va uning asosiy xususiyatlari.**

Reja:

Geografik axborot tizimlari nima?

Geografik axborot tizimlarini tashkiliy qismi?

Geografik axborot tizimlari qanday ishlaydi

### **1. Geografik Axborot Tizimlari nima?**

GAT bu avvalombor planetamizda sodir bo'layotgan voqea hodisalarni va fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish hamda deyarli har handay sohada qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish uchun yordam beradigan kartalar yaratish uchun xizmat qiladigan zamonaviy kompyuter texnologiyasidir. GAT ni hozirgi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas, qanchalik tez kompyuter dasturlari rivojlanar ekan shunchalik tezlik bilan GAT ham rivojlanib boradi. GAT orqali amalga oshiriladigan har qanday amaliy tahlillarni barchasi kompyuter dasturlari orqali amalga oshiriladi. GAT orqali biz ma'lumotlarni so'rash, fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni birlashtirish, ularni vizualizatsiya qilish, mavjud ma'lumotlardan yangi ma'lumot yaratish va boshqa turli tuman muammolarni hal qilish mumkin. Masalan, fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish yoki kartalar yaratish qandaydir bir yangilik emas albatta, insoniyat paydo bo'libdiki, u o'zini hayotini yaxshilash maqsadida turli tuman kartalar yaratib kelmoqda, biroq bu kabi kartalar yaratish va fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish GAT da amalga oshiriladigan funktsiyalardan farq qiladi. Farqi shundaki, GATda zamonaviy kompyuter dasturlari orqali fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish va kartalar yaratish jarayoni keskin tezlashadi va oxirgi pirovard natija ham sifatli bo'lishi aniq. GAT orqali biz qaror qabul qilish jarayonini keskin ravishda operativlatish imkoniga ega bo'lamiz, xususan bashorat qilish, bir necha xil ma'lumotlar bazasini bir vaqtni o'zida tahlil qilish va h.k.

XXI asr informatsion texnologiyalar asri deb dunyo olimlari e'tirof etishmoqda. Ushbu fikr informatsion texnologiyalarning rivojlanish darajasini baholash orqali asoslanmoqda. Dunyoda yaratilayotgan informatsion texnologiyalar deyarli barcha fanlarning imkoniyatlarini kengaytirar ekan shuningdek, ishlab chiqarishni sifat va miqdor ko'rsatkichini yaxshilashga asos bo'ladigan ilmiy tadqiqotlarni keng ko'lamda, tez va aniq bajarilishini ham tam'inlaydi. SHu jumladan, geografiya sohasida ham Geografik axborot Tizimlari (GAT) va Aerokosmik usullar (AU) kabi tarmoqlarni jadal rivojlanayotganligi ushbu sohaning istiqbolini belgilaydi. SHuni takidlash lozimki, har bir sohani rivojlanishi qishloq xo'jaligi tarmog'iga, uni istiqboli esa fan, texnika va texnologiya tarakkiyotiga borib taqaladi. Ularning hayotdagi o'rni shu muammo bilan chambarchas bog'lanishi kerak. Demak, fan va texnologiya ya'ni geografiya va informatika o'rtasida aloqa o'rnatish kelajakda geografiyani istiqbolini yukasaltiradigan texnologiyalar yaratilishiga olib keladi. Bu respublikamizni iqtisodiy qudratini va xalq farovonligini yaxshilashda, iqtisodiyotni barcha tarmoqlari faoliyatini ilmiy jixatdan muntazam tahlil qilish, baholash va prognozlashtirishda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan geografik bilimlarga tayanilishi lozimligini anglatadi. Jahon tajribasida sinalgan hamda takomillashayotgan ushbu texnologiyalarni hozirda respublikamizni iqtisodiyot tarmoqlarida qo'llash zarurati sezilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda fan, texnika-texnologiya va ishlab chiqarishni integratsiyalashga katta ahamiyat berilgan. Geografik bilimlarni informatsiyaon texnologiya imkoniyatlari bilan integratsiyalashtirish geografiya sohasining iqtisodiyot tarmoqlaridagi o'z o'rnini belgilashga yordam beradi. GAT va aerokosmik usullarga asoslangan zamonaviy texnologiyalar geografiya sohasidagi fanlarning integratsiyasini belgilaydi.

Geografik Axborot Tizimi (GAT) bu axborotlar bazasi bilan ishlashning an'anaviy operatsiyalarini (so'roq va statistik tahlilni) o'ziga birliktirgan holda, qo'shimcha geografik tahlil va axborotlarni to'laqonli ko'rsatib berish (vizualizatsiya qilish) imkoniyatini beruvchi texnologiyadir. GATning bu imkoniyatlari uni boshqa axborot texnologiyalaridan farqlaydi va uni keng spektrdagi, turli masalalarni echishda qo'llash imkoniyatlarini beradi. Bizni o'rab turgan atrof-muhit va unda kechayotgan jarayon va hodisalarning hududiy va davriy o'zgarishlarini tahlil va prognoz qilish, asosiy faktorlar va sabablarni aniqlash hamda ular olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar holatini



to'g'rilash uchun strategik yechimlar topish imkoniyatlarini beradi. GAT yer yuzasidagi o'zgaruvchan voqea-hodisalarni o'rganishda aerokosmik materiallarga ham tayanadi.

### 1.5. GATning bazaviy komponentlari

Har qanday GAT quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- apparat platformasi (hardware),
- dasturiy ta'minot (software),
- ma'lumotlar (data),
- Uslublar
- Inson -tahlilchi.



2.1 -rasm. GATning bazaviy komponentlari

Apparat platformasi o'z navbatida quyidagi qismlardan iborat:

- kompyuterlar (ish stanstiyalari, noutbuklar, cho'ntak PKlari), ma'lumotlarni saqlash vositalari (vinchesterlar, kompaktdisklar,
- disketalar, flesh-xotira),
- axborotni kiritish qurilmalari (digitayzerlar, skanerlar, raqamli
- kameralar va fotoapparatlar, klaviaturalar, kompyuter sichqonlari),
- axborotni chiqarish qurilmalari (printerlar, plotterlar, proektorlar, displeylar).

Tahlil qilish uchun foydalaniladigan ma'lumotlar har qanday GATning yuragi hisoblanadi. Kiritish qurilmalari mavjud geografik axborotni berilgan GATda qo'llaniladigan formatga konvertastiya qilish imkoniyatini beradi. Geografik axborot qog'oz kartalarni, aerofotos'yomka va masofadan zondlash materiallarini, adremlarni, obyektlarning GPS global pozitsionirlash tizimlari (Global Positioning System), kosmik yo'ldoshlarni yoki boshqa formatlarda saqlanayotgan raqamli geografik axborotni o'z ichiga oladi.

Apparat platformalarining GATda qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir nechta misollarini keltiramiz. GAT-platformaning uyda yoki katta bo'lmagan ofisda o'rnatilishi mumkin bo'lgan eng sodd konfigurastiyasi kompyuter va lazerli yoki purkovchi printerni (oq-qora) o'z ichiga oladi.

Agar GAT yuqori sifatli professional raqamli kartalarni yaratish uchun mo'ljallangan bo'lsa, u holda apparat platformasi quyidagi komponentlar bilan ifodalanishi mumkin: yuqotri unumdor kompyuter, baquvvat server, zamonaviy digitayzer, rangli lazerli tezkor printerlar va plotterlar.


GATning dasturiy ta'minoti to'g'risida so'zlashsa, shuni ta'kidlash lozimki, dasturiy paketlarning ko'pchiligi geoaxborotni qavatli kartografiyalash, markirlash, kodlash, obyektini berilgan mintaqada topish, turli kattaliklarni aniqlash kabi o'xshash tavsiflar to'plamiga ega, lekin

narxlari va funktsionallikda juda farq qiladilar. Dasturiy ta'minotni (DT) tanlash foydalanuvchi tomonidan yechiladigan muayyan masalalarga bog'liq. Misol tariqasida DT ishlab chiqaruvchi firmalar nomlaridan iborat ro'yxatni keltiramiz, 1.1-jadval.

2.1-jadval. GAT dasturlari va ishlab chiqaruvchilar

<b>Ishlab chiqaruvchi firma</b>	<b>Dasturlar</b>
MapInfo	MapInfo Pro
ESRI	ArcView, Arc/INFO
Autodesk GmbH	AutoCAD MAP, AutoCAD Land De-velopment, Autodesk MapGuide R5, AutoCAD Map 2000
Caliper	Maptitude
Integrgraph	GeoMedia
Tactician	Tactician
Geograph	GeoGraf GIS 2.0
KREDO- Dialog	CREDO


Aerokosmik usullar va materiallar yer yuzasidagi atrof muhit va obyektlarning ma'lum bir vaqtdagi holatini uzoq masofadan (samalyot, havo kemasi yoki suniy yo'ldosh orqali) turib aniqlaydigan uslubidir. Masofadan turib aniqlash – bu “yer usti tuzulishini, undagi obyekt (voqea, hodisa va jaryon) bilan to'g'ridan to'g'ri aloqada bo'lmasdan, ularni aniqlay oladigan, yuksak darajada texnikalashgan sohadir”. Bu havodan suratga olish tizimlari elektromagnit spektrning ko'rinuvchan va infraqizil qismlarida ishlaydi. Ular «to'plam tizimlari» funktsiyasi kabi, ya'ni shuni ifodalaydiki ikki o'lchamli surat bir yolg'iz qisqa vaqtda shakllanadi. Fotografik to'liq uzunligi regioni (diopozoni) asosan 0,3 dan 0,9 mkm oraliqda o'zgarib turadi. Radiatsiya (yer yuzidagi obyektlardan aks etadigan) yorug'lik sezuvchi qatlamga tegib optika tizimi (kamera) orqali aniqlaniladi. Bu qatlam yoki «qavat» fotografik qabul qilgich kabi harakat qiladi. Shu tariqa yer yuzasidagi voqea hodisalarning davriy o'zgarishlarini tadqiq qilish uchun zarur materiallar bilan ta'minlaydi.



2.1-rasm. Kartografiya, GAT va Masofadan zondlash integratsiyasi

Masofadan sezishning o'rganish ko'lami juda eng bo'lib, u geografik ma'lumotlarni boshqarishda foydalaniladigan tahlil, baholash va bashorat qilish kabi amallarni o'zida birlashtiradigan suratlar bilan ishlashning yuqori ko'rsatkichli texnologiyasidir. GAT bu ko'proq geografik bog'langan ma'lumotlarni saqlash, tahlil qilish va atribyut ma'lumotlar asosida voqeyliklarning hududiy bog'liqliklarni tahlil qiladi. GAT yerga oid bo'lgan ma'lumotlarni tahlil qiladigan va boshqara oladigan standart texnologiyadir; bu yuqori sifatli aerokosmik suratlar va ularni boshqarishni texnologik jarayoniga asoslanadi. Aerokosmik suratlar yer yuzasiga oid yuqori sifatli, davriy va sinoptik ma'lumotlar bilan muntazam ta'minlab, GAT yordamida voqea hodisalarning dinamik o'zgarishini monitoring qilib borish potntsiolini belgilaydi.

Viloyatda qishloq xo'jaligi yerlarining degradatsiyaga uchrashi va suv taqchilligi kabi o'z echimini kutayotgan dolzarb muammolarning asosiy sababini suv-tuproq-o'simlik-boshqaruv tizimining hududiy mutonasibliigi asosida o'rganishga qaratiladi. Bunda, qishloq xo'jaligi ekin eqiladigan erlarning irrigitsiya tizimlariga nisbatan joylashuvi, ularning suv bilan ta'minlanish darajalarini zonalarga ajratib klassifikatsiyalashtiriladi. Viloyatda etishtiriladigan asosiy ekin turlarini hududiy tarqalishini va mavsumiy o'zgarishlarini aniqlash lozimdir. Ushbu malumotlarga erishish uzoq masofadan zondlash texnikalari orqali olingan Aerokosmik ta'svirlarni GAT texnologiyalari asosida deshifrovka qilish orqali amalga oshirish, ishning tezkorligini va sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu malumotlar viloyat er resurslar boshqarmasining rasmiy rejasi ma'lumotlariga aoslangan holda ma'muriy birliklar bo'yicha hududiy statistik tahlil qilinadi.



Geografik tadqiqotlarda kartografik materiallardan foydalanishning asosiy maqsadi bu xalq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishini turli kartalar bilan ta'minlash orqali resurslardan samarali foydalanish holatini ko'rsatib berishdir. Geoinformatsion tahlil qilish usullari esa GAT va Aerokosmik texnologiyalar yordamida resurslardan samarali foydalanish holatini baholash va kartalashtirishni avtomatlashtirilgan usuli bo'lib, tez, aniq va sifatli ma'lumotlar bilan ta'minlab, ishni samaradorligini oshiradi. Ushbu ma'lumotlar orqali tegishli sohalarda qaror qabul qilish jarayonini keskin ravishda operativlatish imkoniyatini berib, xususan prognozlashtirish, bir necha xil ma'lumotlar bazasini bir vaqtning o'zida tahlil qilish tezlashadi.

### 3-mavzu: GAT ni tashkiliy qismlari va ishlash uslublari.

Reja:

1. Geografik Axborot Tizimlarini tashkiliy qismi.
2. Geografik Axborot Tizimlarining ishlashi
3. GAT ni hozirgi kun amaliyotidagi ahamiyati va zaruriyati hamda boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

**1. Geografik Axborot Tizimlarini tashkiliy qismi.** GAT ni ishlashi uchun quyidagi 5 ta muhim tashkiliy qismlar mavjud bo'lishi zarur:

1) Apparat vositalari bu GATni amalga oshirish jarayonida kerak bo'ladigan barcha vositalardir ya'ni kompyuter, plotter, dijitalyzer, printer, GPS va boshqa vositalardir.

2) Dasturlar bu GATda fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish va kartalar yaratish uchun kerak bo'ladigan kompyuter dasturlaridir. Fazoviy (geografik) ma'lumotlarni kiritish, ularni tahlil qilish, ularni tushunarli ko'rinishda vizualizatsiya qilish, ma'lumotlar bazasini boshqarish va uni saqlash yo'llari, kerakli ma'lumotlarni tez vaqt ichida so'rash va hokozalar kompyuter dasturlarini qandayligidan dalolat beradi.

3) Ma'lumotlar. Ma'lumotlar GATning eng muhim belgilardan biri hisoblanadi desak mubolog'a bo'lmaydi. Fazoviy ma'lumotlar GATni amalga oshiruvchi tomonidan jadval ko'rinishda yoki foto surat ko'rinishida to'planishi mumkin. Yoki to'plangan fazoviy ma'lumotlar boshqa to'plangan fazoviy ma'lumotlar bilan birlashtirib tahlil qilinishi mumkin.

4) Amalga oshiruvchilar. Insonlarni ishtirokisiz har qanday GAT tasavvur qilish qiyin, qaysiki insonlar barcha bo'layotgan jarayonlarni boshqarib boradi. GAT natijalari qanday darajada sifatli bo'lishi aynan insonni bilim mahoratiga va uni ishtirokiga bevosita bog'liq.

5) Usullar. Ko'p hollarda fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilishni va GAT ni natijalari tez yoki sifatli bo'lishi aynan qanday usullarni qo'llashga bog'liq.

**2. Geografik Axborot Tizimlarining ishlashi.** GAT real olam to'g'risidagi ma'lumotlarni tematik qatlamlar to'plami ko'rinishida saqlaydi. Bu ma'lumotlar bir-biri bilan geografik joylashuv asosida birlashtirilgan, bog'langan bo'ladi. Bu oddiy, biroq juda qulay, va ixcham yondashish yoki usul, turli masalalarni yechishda o'zining naqadar to'g'riligini ko'rsatdi.

Istalgan geografik informatsiya (axborot), obyektlarning hududiy joylashuv o'rni to'g'risidagi ma'lumotni o'zida mujassam etadi. Misol keltiramiz, u geografik yoki boshqa koordinatalarga bog'lanish, yoki adresning ko'rsatilishi, pochta indeksi, saylov okrugi, yer uchastkasining identifikatori (hudud yoki obyekt haqidagi ma'lumot), yo'lning nomi bo'lsin barcha-barchasi, geografik joylashuv to'g'risidagi ma'lumotni o'zida mujassamlashtirgan.

Shunga o'xshash misollardan foydalanilganda obyektlarni joylashgan joyini avtomatik tarzda topish uchun geo-kodlash degan protseduradan foydalaniladi. Uning yordamida sizni qiziqtirayotgan obyekt yoki jarayon kartada qaerda joylashganligini aniqlash va ko'rish mumkin. Masalan: sizning do'stingiz yashaydigan uy, sizni qiziqtirayotgan tashkilot, suv toshqini yoki zilzila sodir bo'lgan joyni topish, sizga kerak bo'lgan joyga osonroq va tezroq etib olish marshrutini aniqlash.

#### ***GAT da informatsiya (axborot)larning formatlari.***

GAT bir-biridan farqli bo'lgan ikkita ma'lumot formatlari – “vektor” va “rastr” bilan ishlashi mumkin (4 rasm). Vektor formatda nuqtalar, chiziqlar va maydonlar to'g'risidagi axborotlar X, U koordinatalar to'plami tarzida kodlanadi va saqlanadi. Nuqtaning joylashgan o'rni (nuqtaviy obyektlar uchun), masalan quduqning, X, U **koordinatalar juftligi** bilan izohlanadi. CHiziqli obyektlar – yo'llar, quvurlar kabi, X, U **koordinatalar to'plami** sifatida saqlanadi. Maydon – yer uchastkalari, xizmat ko'rsatiladigan hudud kabi, **yopiq koordinatalar to'plami** sifatida saqlanadi.

Axborotlarning raster formati – bunga skanerda tushirilgan tasvirni yoki raqamli foto komera orqali olingan tasvirlarni misol qilib olish mumkin. U har bir katagi alohida qiymatga ega bo'lgan axborotlar to'plamidan iborat. Har ikkala formatning ham o'ziga yarasha afzallik va kamchilik tomonlari mavjud. Zamonaviy GAT dasturlari ikkala formatdagi axborotlar bilan ham ishlaydi.

### **GAT yechadigan masalalar** va u bajaradigan 5 ta asosiy vazifa:

Umumiy foydalanishda GAT aslida beshta amalni bajaradi:

- 1) Axborot (maxlumot) larni kompyuterga kiritish
- 2) Ma'lumotlar ustida ishlash (axborotlarni manipulyatsiya qilish)
- 3) Boshqarish
- 4) So'rov va tahlil
- 5) Vizualizatsiya

**Ma'lumot kiritish** – Ma'lumotlarni GAT da ishlatish uchun bu fazoviy ma'lumotlar raqamli shaklga ega bo'lgan formatga keltirish kerak bo'ladi. Masalan, qog'ozda chizilgan kartalarni kompyuterga kiritish "*kartani raqamlashtirish deb ataladi*". Bu jarayonni yanada tezlashtirish uchun biz GATda skanerlardan foydalanish imkoniyatiga egamiz. Skanerdan boshqa bir vosita bu dijitayzer deb nomlanadi.


GATda foydalanish uchun axborotlar, zarur sonli formatga aylantirilishi kerak. Qog'oz kartalardagi axborotlarni kompyuterga kiritish jarayoni raqamlashtirish (otsifrovka) deyiladi. Zamonaviy GATda bu jarayon skaner texnologiyasini qo'llagan holda avtomatlashtirilishi mumkin. Bunday avtomatlashtirish xususan katta hajmdagi loyihalarni bajarganda bu juda muhim. Nisbatan kichik hajmdagi ishlarda axborotlar dizitayzer yordamida kompyuterga kiritilishi mumkin. Ba'zi GAT dasturlari rastr formatdagi rasmlarni avtomat tarzda vektor formatga o'tkazuvchi vektorizatorlarga ega. Ko'p hollarda axborotlar GAT dasturlariga to'g'ri keluvchi, sonli formatda mavjud bo'lishi mumkin.

**Manipulyatsiya** – Ma'lumotlar ustida ishlash. Biror bir loyihani bajarish jarayonida, ko'p hollarda, mavjud bo'lgan axborotlarni, qo'shimcha ravishda, sizning tizimingiz talablariga muvofiq ravishda, ko'rinishini o'zgartirish kerak bo'ladi. Masalan, turli tematik geografik axborotlar turli masshtablarda bo'lishi mumkin. Hamma axborotlarga birgalikda ishlov berish va vizualizatsiya qilish uchun ularni umumiy masshtabga olib kelish va yagona kartografik koordinatalar sistemasiga o'tkazish zarur.

GAT texnologiyasi georgafik axborotlarni manipulyatsiya qilish, ma'lum masala uchun zarur bo'lgan axborotlarni ajratib olish uchun turli usullarga ega.

**Boshqarish** – ish jarayonida fazoviy ma'lumotlardan foydalanuvchilar sonini, fazoviy ma'lumotlar turilari va miqdari ko'payishi ma'lumotlarni samarali boshqarishga ta'sir etadi. Bunday hollarda GATda barcha fazoviy ma'lumotlar relyatsion shakldagi jadvallar ko'rinishida bo'ladi, va barcha jadval ko'rinishidagi fazoviy ma'lumotlar bir biriga chambarchas bog'liq bo'ladi va bu GATda Ma'lumotlar Bazasi Tizimi (MBT) deb ataladi.

Uncha katta bo'lmagan loyihalarda geografik axborot oddiy fayllar tarzida saqlanishi mumkin. Biroq, axborotlarning hajmi va undan foydalanuvchilarning soni ortishi bilan, ularni bir tarbibga keltirilgan holda (strukturada) saqlash va boshqarish uchun axborotlar bazasini boshqarish tizimlaridan, maxsus kompyuter uskunalaridan foydalanish samaraliroq (3.1-rasm).



3.1-rasm. GAT da ma'lumotlarni saqlanishi.

GATda axborotlar bazasining realizatsion strukturadan foydalanish maqsadga muvofiq. Bu strukturada axborotlar jadval ko'rinishida saqlanadi. Bunda, axborotlar bazasi jadvallarini bir-biri

bilan bog'lash uchun, hamma jadvallar uchun umumiy bo'lgan maydondan foydalaniladi. Bu oddiy biroq juda qulay usul ko'pgina hollarda keng qo'llaniladi.


**Ma'lumot so'rash va tahlil qilish** – GAT da mavjud fazoviy ma'lumotlar bazasdan bizga kerakli bo'lgan ma'lumotni so'rab topishimiz mumkin. Savolar oddiydan tortib to kompleks savollarga borib taqaladi. Masalan *u yoki bu yerni egasi kim*, ikkita obekt orasidagi masofa qanchani tashkil etadi, ma'lum bir tahlilni talab qiladigan murakkab so'rashlarga esa, yangi *uy ko'rish uchun qaerda bo'sh yer mavjud*.

GAT va geografik axborot vositasida quyidagi kabi oddiy va qo'shimcha tahlillar talab etadigan murakkab savollarga ham javob olishingiz mumkin:

Oddiy savol: ushbu yer uchastkasining egasi kim? bu obyektlar bir-biridan qanday uzoqlikda joylashgan? muayyan zona qayerda joylashgan?

Murakkabroq savol: yangi uyni qurish uchun qayerlarda joy bor? el o'rmonlari joylashgan tuproqlarning asosiy tipi qanaqa? yangi yo'lining qurilishi transport harakatiga qanday ta'sir o'tkazadi?

So'roqni kopyuter sichqonchasi tugmachasini displeyda ma'lum obyekt ustiga olib borib oddiy bosish bilan yoki GAT dasturlarida mavjud analitik funktsiyalar yordamida amalga oshirish mumkin (3.2-rasm).



3.2-rasm. GAT da ma'lumotlarni aks etishi

Zamonaviy GAT axborotlarni tahlil qilishning ko'pgina kuchli imkoniyatlariga ega. Ular orasida ancha muhimi ikkita bo'lib, ular: yaqinlik (masofa) tahlili va ustma-ust qo'yish tahlillari.

Obyektlarning bir-biriga nisbatan yaqinlik tahlilini amalga oshirish uchun GATda «buferlash» degan protseduradan foydalaniladi. Bu amal quyidagi savollarga javob topishga yordam beradi:

- *bu suv havzasidan 100 m uzoqlikda nechta uylar bor?*
- *Mazkur magazindan 1km dan uzoq bo'lmagan masofada nechta haridorlar yashaydi?*
- *Neft qazib olish boshqarmasidan 10 km masofada bo'lgan neft quduqlarining umumiy neft ishlab chiqarishdagi hissasi qancha?..va h.k.*

Ustma-ust qo'yish protsedurasi har xil tematik qatlamlarda joylashgan axborotlarni birlashtirishdan iborat. Bu o'z navbatida turli axborotlarni; masalan tuproq, joyning nishabligi, o'simlik turi va erga egalik, er solig'i miqdori va h.k. axborotlarni integratsiya qilish imkonini beradi.

**Vizualizatsiya** – Ko'pchilik fazoviy ma'lumotlar operatsiyalarining pirovard natijasi ma'lumotlarni karta yoki grafik ko'rinishida vizualizatsiya qilishdan iborat. Karta bu fazoviy ma'lumotlarni qisqa lekin boy, tushunarli ko'rinishda qaror qabul qiluvchiga etkazishdir va bu fazoviy ma'lumotlarni samarali saqlash yo'llaridan biri hisoblanadi. GATda ana shu vizualizatsiyani yanada tushunarliroq ko'rinishda qaror qabul qiluvchiga etkazish uchun turli tuman dasturlar mavjud. Masalan, ikki o'lchamli ma'lumotlarni uch o'lchamli ko'rinishda, yoki grafiklar animatsiyalar orqali tasvirlash mumkin.

**3. GAT ni hozirgi kun amaliyotidagi ahamiyati va zaruriyati hamda boshqa fanlar bilan aloqadorligi.** Hozirgi kunga kelib, halq xo'jaligininig deyarli barcha tarmoqlarida Geografik Informatsion Sistemalaridan keng foydalanilmoqda. Xususan, suv xo'jaligida: suv yo'llarini o'rganish, suvni boshqarish, suvni taqsimlash, suvni sho'rlanish darajasini o'rganish, suvni organik

va ximik tarkibi suv osti hayvonlarini o'rganish, suv o'zanini o'zgartirish, suv toshqinlarini oldini olish, kanallarni avtomatizatsiya qilish, o'rmon xo'jaligida: barcha tirik jonizotni emigratsiya va imigratsiyasini o'rganish, o'rmon yong'inini oldini olish, barcha o'simlik dunyosini joylashishi bo'yicha o'rganish, ularni rivojlanishi va x.z, qishloq xo'jaligida, erni sho'rланishi, yerni kimyoviy tarkibi, qishloq xo'jaligi ekinlarini rivojlanish tsikli, o'simliklarni suv ichish jarayoni, o'simliklarni kasalini o'rganish va h.k.

Geografik Axborot Tizimlari (GAT) fani kompyuter texnologiyari, dasturlarni rivojlanishi bilan keskin bog'liq. SHuningdek matematika, fizika, biologiya va ximiya fanlari bilan ham bog'liq. Masalan, masofadan turib ma'lumot yig'ishni (Remote Sensing) rivojlanishi kosmonavtikani rivojlanishiga bog'liq.

### **1. Masofadan turib ma'lumot (Remote Sensing) yig'ish**

Masofadan kuzatish yoki ma'lumot yig'ish bu avvalombor u yoki bu fazoviy obyekt bilan to'g'ridan to'g'ri aloqada bo'lmay turib ma'lumot yig'ish yoki yerni kuzatish ilmi yoki san'atidir. Bu jarayon refleksiya bo'layotgan yoki sochilib chiqayotgan energiyani yozish va aniqlash hamda yozilgan ma'lumotlar ustida ishlash, tahlil qilish va tayyor ma'lumotdan foydalanish.

Ba'zi bir hollarda masofadan ma'lumot yig'ish elektromagnit radiatsiyasidan foydalanish orqali yerni kuzatish deb ham nomlanadi. Masalan masofadan ma'lumot yig'ish insonlarni har kungi oddiy harakatidir, yani gazeta o'qish, yurayotgan avtomoshinani kuzatish, ma'ruza davomida domlaga qarab o'tirish bular hammasi masofadan ma'lumot yig'ishga kiradi.

#### **Masofadan ma'lumot yig'ishning (Remote Sensing) rivojlanish bosqichlari.**

1800 – Infraqizil nurlarini aniqlanishi

1839 - Fotosurat olish amaliyotini boshlanishi

Infraqizil spektrini J.B.L. Foucault tomonidan ko'rsatib berilishi

Uchar havo sharidan birinchi fotosuratni olinishi

Elektromagnit spektr teoriyasini J.C Maxwell tomonidan ko'rsatib berilishi

1909 - Ayroplandan olingan birinchi fotosurat

1916 - Birinchi Jahon urushida, Xavo razvedkasini kirib kelishi

1935 - Germaniyada radarni ixtiro qilinishi

Ikkinchi Jaxon urushi davomida Elektromagnit Shkalasini ko'rinmas qismidan foydalanish

1950 - Xarbiy izlanishlar

1959 - Yer sharini kosmosdan fotosuratga olinishi

1960 - Tiros nomli birinchi meteriologik kosmik kemani uchirilishi

1970 - Fazodan olingan suratlarni laboratoriyalarda tahlil qilishni rivojlanishi

1972 - Landsat-1 kosmik kemasini fazoga uchirilishi

1972 - Raqamli Sur'atlar ustida ishlashni keskin rivojlanishi

1982 - Landsat-4 kosmik kemani fazoga uchirilishi

1986 - Fransiyaning SPOT nomli tijorat yerni kuzatish kosmik kemasini fazoga uchirilishi

1990 - Yuqori rezolyuziyaga ega bo'lgan fazoviy kemalar sistemasini ixtiro qilinishi

1995 - Birinchi tijorat yo'lidagi masofadan ma'lumot yig'ishni rivojlanishi

1998 - Arzon bir maqsadli kosmik kemalarni ishlab chiqarish tomon borish




1999 - EOS ni fazoga uchirilishi: NASA erni kuzatish missiyasi

1999 - IKONOS ni fazoga uchirilishi, juda katta fazoviy rezolyusiyaga ega bo'lgan sensor

#### **Masofadan turib malumot yegishda nimalar asosiy rolni quyidagilar uynaydi:**

- a) Elektromagnit radiatsiya
  - b) Atmosferadagi orqali yol
  - c) Obyekt bilan ozaro tasiri
  - d) Radiatsiyani sensor orqali yozib borish (ushlash)
  - e) Radiatsiyani uzatish, qabul qilish, va uni ustida ishlash
  - f) Distansiyadan olingan malumotni qabul qilib uni analiz qilish
- Ohirgi mahsulot yaratish





## 2. Geografik axborot sikli

- Axborot, ma'lumot to'plash. Bu jarayon o'z ichiga to ma'lumot to'plashdan tortib to bu ma'lumotlar ma'lum bir jadvalar tizimiga keltirgunga qadar davom etadi. Ya'ni to'plangan m'lumotlar ma'lum bir talablarga javob beradigan bo'lishi zarur.
- Integratsiya, bu jarayon ikkinchi darajali ma'lumotlar ustida ishlash, ularni tahlil qilish, ularni manupulyatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Ana shu jarayonni qanday tartibda amalga oshirilishi uchinchi darajali ma'lumotlarni sifatiga ta'sir etadi.
- Realizatsiya, bu jarayon o'z ichiga uchinchi darajali ma'lumotlar bazasain ma'lum bir maqsadlarda real dunyoda ishlatilishi tushuniladi.

#### **4. GAT bilan bog'liq bo'lgan texnologiyalar.**

GAT axborot tizimlarining boshqa bir qator turlari bilan uzviy bog'langan. Uning ulardan asosiy farqli tomoni geografik axborotlarni manipulyatsiya va tahlil qila bilishida.

Axborot tizimlarining umumiy qabul qilingan klassifikatsiyasi yo'q, quyida keltirilgan tizimlarning bayoni GATning bu tizimlardan qanchalik uzoqligini va ular orasida uning o'rnini va qiymatini aniqlab beradi:

*Stolda kartalar tuzish (desktop mapping)* – tizimida hamma narsa kartalarga asoslangan, karta axborotlar bazasi hisoblanadi. Ko'pgina bunday tizimlar axborotlarni boshqarish va uni tahlil qilishning cheklangan imkoniyatlariga ega bo'ladi. Mazkur tizimlar bo'yicha dasturlar stol -personal kompyuterlarda, Macintosh va UNIX ishchi stantsiyalarining kichik modellarida ishlaydi.

*Avtomatik loyihalash tizimlari (CAD)* – loyihalarning chizmalarini, binolar va infrastruktura rejalarini yaratishga qodir. Bu tizim ham juda chegaralangan analitik funktsiyalarga ega. Ba'zi Avtomatik loyihalash tizimlarida axborotlarni kartografik ko'rsatib berish imkoniyatlari kengaytirilgan, biroq, ulardagi utilitlar katta geografik axborotlar bazasini samarali boshqarish va tahlil qilish imkoniga ega emas.

*Masofadan turib kuzatish tizimlari (remote sensing) va global pozitsion tizimlar (GPS).* Masofadan turib kuzatish uslublari – bu uchuv qurilmalari bortiga o'rnatilgan turli kameralar va datchiklar, global pozitsion tizimlarining qabul qilish stantsiyalari va boshqa qurilmalar yordamida yer yuzasini kuzatish va o'lchash bo'yicha bir san'at yoki fanning bir yangi rivojlanayotgan yo'nalishidir.

Bu datchiklar axborotlarni koordinatalarning yig'ini yoki tasvirlar sifatida yig'adi va olingan axborotlarni maxsus qayta ishlash, tahlil va vizualizatsiya qilish imkoniyatlariga ega.

Bu tizimlarda axborotlarni boshqarish va tahlil qilish uchun etarli imkoniyatlarning etarli emasligi uchun, qo'shimcha funktsiyalarsiz, ularni haqiqiy GAT qatoriga qo'shib bo'lmaydi.

Axborotlar bazasini boshqarish tizimlari (DBMS) - barcha turdagi axborotlarni, shu jumladan geografik axborotlarni ham, saqlash va boshqarishga mo'ljallangan. Bu tizimlar bunga o'xshash masalalar uchun optimallashtirilgan, shuning uchun ham ko'pgina GAT dasturlarda DBMS bilan ishlash imkoniyatlari qurilgan. Bu yetarlicha qudratli tizimlar ham GATda mavjud bo'lgan tahlil va vizualizatsiya qilish funktsiyalariga ega emas.

#### 4-mavzu. GAT orqali bajarish mumkin bo'lgan geografik amallar va uni afzalliklari.

##### Reja:

1. Geografik so'rov va tahlil.
2. Tashkilot ichida integratsiyani yaxshilash
3. Masalaga to'g'ri, asoslangan yechimlar topish

##### 1. Geografik so'rov va tahlil.

GATning eng katta yutug'i bu geografik axborotni o'zini, yoki geografik obyektga bog'liq bo'lgan istalgan boshqa axborotni (atributiv axborotni) yaqqol ko'rsatib berishidir.

Atributiv axborotni ko'rsatib berishning usullari turlicha:

Bu datchikdan olingan sonlar, obyektlar to'g'risidagi axborotlar bazasining jadvali, obyektlarning rasmlari, yoki videotasvir bo'lishi mumkin.

Shunday qilib GAT geografik axborotdan, yoki joylardagi obyektlar to'g'risidagi axborotlardan foydalanish mumkin bo'lgan istalgan sohada yordamchi bo'lishi mumkin (4.1-rasm).



4.1-rasm. GAT dan foydalanuvchilar

Agar GATdan foydalanish mumkin bo'lgan sohalarga, uning samaradorligiga nazar tashlaydigan bo'lsak, shuni ko'rish mumkinki, u Siz uchun ham quyidagi ishlarni amalga oshirishi mumkin:

##### 1. Geografik so'rov va tahlil.

GATda axborotlar bazasidan kerakli axborotni izlash va geografik so'roqni amalga oshirish imkoniyati dunyoda ko'pgina kompaniyalarga millionlab dollar mablag'ni tejash imkonini bergan.

GAT klientlarning talabiga javob berish vaqtini qisqartiradi; zarur tadbirlar o'tkazish uchun to'g'ri keladigan hududlarni aniqlash; turli parametrlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash (masalan tuproq, iqlim va ekinlarning hosildorligi); elektr tarmog'i uzilgan joylar va h.k.

GATda axborotlar bazasidan kerakli axborotni izlash va geografik so'roqni amalga oshirish imkoniyati dunyoda ko'pgina kompaniyalarga millionlab dollar mablag'ni tejash imkonini bergan. GAT klientlarning talabiga javob berish vaqtini qisqartiradi; zarur tadbirlar o'tkazish uchun to'g'ri keladigan hududlarni aniqlash; turli parametrlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash (masalan tuproq, iqlim va ekinlarning hosildorligi); elektr tarmog'i o'zilgan joylar va h.k. GAT qo'llanishi mumkin bo'lgan yana bir qator masalar: joydan ma'lum hududda joylashgan, shifer tomli, uch xonali 10 metrli oshxonaga ega bo'lgan uylarni aniqlab topish. Bunday so'roq qo'shimcha parametrlarni kiritish bilan yana to'ldirilishi mumkin, masalan binolarning narxlari va h.k.



GAT va boshqa axborot texnologiyalari, bizga yaxshi ma'lum bo'lgan, faktlar to'g'risida yaxshi xabardor bo'lish masala va muammolarga yaxshi echim topishga yordam beradi deyilgan gapning to'g'riligini yana bir bor isbotlaydi. Biroq GAT – bu masalaga tayyor echim chiqarib beradigan asbob yoki vosita emas. U masalaga javob topish protsedurasini tezlashtirishga va uning samaradorligini, sifatini, aniqligini oshirishga katta yordam beradigan vositadir.

U geografik axborotlarni so'roq va tahlil qilish funktsiyalari bilan ta'minlaydi, tahlil natijalarini inson qabul qilishiga oson va qulay bo'lgan holda, yaqqol ko'rsatib beradi.

GATda kartalarga alohida o'rin ajratilgan. GATda kartalar yaratish jarayoni an'anaviy qo'lda yoki avtomatik tarzda karta ishlab chiqarish uslublaridan ancha soddaroq va ixchamdir. Bu jarayon axborotlar bazasini yaratishdan boshlanadi. Bu uchun birlamchi axborotning manbasi sifatida mavjud qog'oz kartalarni kompyuterga kiritishdan foydalanish mumkin. GATga asoslangan kartografik axborotlar bazasi yaxlit, ya'ni, alohida karta listlariga, regionlarga bo'linmagan holda, va ma'lum bir masshtabga yoki kartografik proektsiyaga bog'lanmagan holda, bo'lishi mumkin. Bunday axborotlar bazasi asosida, elektron yoki qattiq nusxa ko'rinishida, istalgan territoriyaga, ixtiyoriy masshtabda, zarur tafsilotda, kerakli shartli belgilarni ifoda etgan holda, kartalar yaratish mumkin. Istalgan vaqtda axborotlar bazasi boshqa manbalardan olingan yangi axborotlar bilan to'ldirilishi, mavjud axborotlar to'g'rilanishi mumkin. Katta tashkilotlarda yaratilgan topografik axborotlar bazasi boshqa bo'linmalar uchun kartografik asos sifatida foydalanishi mumkin. SHu o'rinda bu axborotlarni tez ko'chirish va ularni turli kompyuter tarmoqlari orqali operativ tarzda jo'natish va olish mumkin (Sultonov, 2011).

#### VEGETATSIYA INDEKSI

**Tayanch iboralar:** Vegetatsiya indeksi, "ArcView" dasturi, "Landsat" sun'iy yo'ldoshi, qizil va infraqizil nurlar, bulutlilik darajasi.

Geografik tadqiqotlarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati fazoga sun'iy yo'ldoshlarning uchirilishi va ulardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonining rivojlanishi bilan oshib bormoqda. Jumladan, tabiiy geografik tadqiqotlarda yer yuzasidagi voqea va hodisalarni tez, yangi ma'lumotlar asosida tahlil qilish, atrof-muhit holatini doimiy monitoringini olib borish, qishloq xo'jalik imkoniyatlarini geografik baholash va boshqa izlanishlarni olib borishning tezkor muhiti shakllanmoqda. Bu esa tabiiy geografik tadqiqotlarning nisbatan kam qo'llaniladigan yo'nalishlari, jumladan, o'simlik olamini geografik o'rganishning keng imkoniyatlarini yaratib bermoqda. Ushbu maqolada yuqoridagi tadqiqot ishlaridan biri sifatida vegetatsiya indeksi Xorazm viloyati misolida ko'rib chiqiladi.

Dastlab vegetatsiya indeksi tushunchasiga tarif berish maqsadga muvofiq. "Vegetatsiya" so'zi "o'sish" ma'nosini berib, o'zbek ilmiy adabiyotlarida vegetatsiya davri sifatida keng qo'llaniladi hamda o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, gullashi va urug'larini pishib etilishi uchun harorat etarli bo'lgan davrni ifodalaydi. CHet el adabiyotlarida bu so'z o'simlik qoplami, umumiy o'simlik dunyosi yoki o'simliklar tarqalgan hududni ifodalaydi. Vegetatsiya indeksi global o'simlik qoplami monitoringini olib borishda keng ishlatilib quyosh nurining tushish qiyaligi va ekin turiga bog'liq holda miqdoriy o'zgaradi. Tahlilga olingan kosmik sur'atlarda qishloq xo'jalik erlari o'rtacha to'q kulrangda, tuproq esa ochiq kulrangda aks etib, to'q kulrang vegetatsiya indeksini ifodalaydi.

Vegetatsiya indeksi uslubi tarixiga qisqacha nazar solamiz. Fazoviy tadqiqotlar 4 oktabr 1957 yili Sobiq Ittifoq tomonidan "Sputnik 1" fazo kemasining uchirilishi bilan boshlangan. Sobiq Ittifoq va AQSH tomonidan fazo kemalarining muvaffaqiyatli uchishlari keyinchalik ularni meteorologik tadqiqotlarda ishlatish uchun mukammallashtirishga turtki bo'ldi. Bu kabi fazo platformalari, asosan, Yer atmosferasini kuzatish va ob-havoni oldindan aytib berish maqsadida foydalanilgan. 1960 yillarning boshlarida sun'iy yo'ldoshlarning "TIROS" shakllariga telekameralar va radiometrlar o'rnatildi. Bu ishlar keyinchalik 1964 yilgacha "Nimbus" su'niy yo'ldoshlari orqali, Milliy Okeanologik va Atmosfera Administratsiyasi (NOAA) platformasida esa Mukammallashtirilgan Juda Yuqori Rezolyutsiyali Radiometr (AVHRR) anjomlari bilan ta'mirlash orqali davom etdi. Planetaning yuzasidan aks etuvchi (refleksiya) infraqizil, qizil va termal infraqizil to'lqinlar

o'rganildi. SHu davrda "NASA" tomonidan, keyinchalik esa "Landsat" dasturi sifatida qaraladigan, Yer Resurslari Texnologiyasi Sun'iy yo'ldoshi ishlab chiqildi. Bu kabi dastlabki sun'iy yo'ldoshlar minimal spektrial aniqlikka ega bo'lsalarda vegetatsiya indeksi va bulutlarning xususiyatlarini o'rganishga asos bo'ladigan qizil va infraqizil to'lqinlarni tadqiq qilishda ham foydalanilgan. "Landsat-1" sifatida nomlangan Yer Resurslari Texnologiyasi Sun'iy yo'ldoshi 23 iyul 1972 yilda "NASA"ning Ko'p Spektrli Skanneri (MSS) bilan birgalikda Yerni masofadan o'rganish imkoniyatlari borasida ko'plab tadqiqotlar olib bordi. SHu tadqiqotlardan birisi AQSHning Buyuk tekisliklari bo'ylab shimoldan janubga tomon kuzgi va yozgi qurg'oqchilik, bahorda o'simliklarning o'sib rivojlanishini o'rganish bilan shug'ullangan. Tadqiqot ishtirokchisi doktor Robert Haas sensorlarning spektrial signallari orqali o'simliklarining biofizik xususiyatlari, miqdori va boshqa to'g'irlash ishlarini amalga oshirish mumkinligini aniqladi. Doktor John Schell nomli matematik yordamida ular qizil va infraqizil radiatsiya farqlari, ularning umumiy qiymati orqali quyoshning zenit burchagini ta'sirini me'yorlashtirish kabi ishlarni amalga oshirdilar. Boshqacha aytganda, qizil va infraqizil radiatsiyaning o'zaro aloqadorligi "Vegetatsiya indeksi" nomini oldi. Keyinchalik ko'plab tadqiqotchilar ham qizil va infraqizil radiatsiya hamda boshqa spektral to'lqinlarning o'zaro aloqadorligini o'rganib, Vegetatsiya indeksining Me'yorlashtirilgan Farqini (NDVI) yer yuzasining o'simlik qoplamini ko'satishini tadqiq qilishdi. SHu bilan vegetatsiya indeksini tez va qisqa vaqtlarda aniqlash imkoni tug'ildi, o'simliklarining fotosintez qobiliyatini o'rganish ishlari boshlandi.

YAshil o'simliklar spektrdagi quyosh radiatsiyasining fotosintez jarayoni uchun foydali qismi – fotosintetik aktiv radiatsiyani o'zlashtirib oladi. O'simliklarning yaproqlari ham infraqizil spektral hududda nurlarni aks ettirish va yutish jarayonida qatnashadi hamda ular quyosh radiatsiyasining yarimini o'zlarida ushlab turadi. Bu fotosintetik aktiv radiatsiyaning 700 nanometrda katta qismi yaproqda organik molekulalarning sintezlanishiga etarli emas. Bularni kuchli absorbtsiyasi (o'zlashtirilishi) o'simlik xujayralarini zaralaydi, ortiqcha qizib ketishiga olib keladi. 400-500 va 600-700 nanometrli to'lqinlar, ya'ni spektrning fotosintez jarayoniga foydali qismi shu jarayon uchun yutiladi va qora rangda bo'ladi, chunki bu to'lqin uzunligidagi nurlar aks etmaydi. Infraqizil nurlarning esa 700 nanometrda katta qismi yaproqda organik molekulalarning sintezlanishiga etarli emasligi sababli ko'proq aks etadi, qaytadi. 500-600 nanometrli yashil nurlarni yaproq o'zidan qaytaradi, shu sababli bizning ko'zimiz yaproqni ko'k rangda ko'radi. Bulut va qorlar esa ko'zga ko'rinadigan qizil to'lqinlarni aks ettirib, infraqizil nurlarni yutadi hamda infraqizil spektral hududda qora bo'lib ko'rinadi. Bunday holatda kelgan nurlardan qaytib ketganlarining farqi spektrda aks etishi orqali vegetatsiya indeksini ifodalab, qiymati 0.0 va 1.0 orasida o'zgaradi. "NDVI" ning o'zi esa -1.0 va +1.0 qiymat orasida bo'ladi ( $NDVI = (NIR - Red) / (NIR + Red)$ ).


Vegetatsiya indeksi yuqoridagi formula asosida, odatda, "ArcView" dasturi yordamida aniqlanadi. Buning uchun "Landsat" dasturining geotiff (geotiff) o'lchamdagi sur'atidan uchinchi (qizil-red) va to'rtinchi (infraqizilga yaqin-near infrared) diapozonlari dasturga kiritiladi. Ularning umumiy tuzilmasi (properties)dan foydalanib tasvir standart og'ish (standart deviation) holatiga o'tkaziladi. "ArcView" muloqat oynasi fayl menyusining bo'sh joyidan "Special Analyst" buyruqlar qatori ishga tushiriladi va undan "Raster calculator" muloqat oynasi tiklanadi. Unda yuqoridagi formula yordamida vegetatsiya indeksi aniqlanadi.

Xorazm viloyatining vegetatsiya indeksini aniqlash uchun yuqorida ko'rsatilgan tartibda "Landsat" dasturining 03 va 07 iyul 2010 yildagi tahlil uchun zarur sur'atlari kiritildi. Viloyat hududi ikkita "Landsat" dasturi sur'atida to'liq tasvirlanadi, ammo sur'atlarning olingan vaqti sun'iy yo'ldoshning orbitadagi harakatiga bog'liq holda etti kunga farq qiladi. Ularning bulutlilik darajasi 0% va sifati 9 darajani tashkil etadi. Bulutlik darajasi qanchalik kichik bo'lsa tahliliy ma'lumotlar shunchalik aniq bo'ladi. Tahlilga olingan sur'atlarni tanlashda quyidagi holatlar inobatga olindi:

- Viloyatda keng hududlarda ekiladigan asosiy ekin turlari paxta, sholi, bug'doy, em-xashak ekinlari va boshqalardir;

- iyul oyida viloyatning dehqonchilikka yaroqli hududlari deyarli bo'sh qolmaydi. Asosan paxta, sholi, em-xashak ekinlari, bog'lar, poliz ekinlari o'simlik qoplamini tashkil etadi;

yilning  
yoki bu  
uchun



-  
boshqa  
oylarida u  
ekin turlari  
ekishga

tayyorlangan o'simlik qoplamisiz hududlar shakllanadi, bu tadqiqot obyektining yuqori vegetatsiya indeksini aniqlash imkoniyatini kamaytiradi;

- yog'in miqdorining eng kam davri, ya'ni bulutsiz davr, shu oyga to'g'ri kelib, quyosh radiatsiyasi yer yuzasiga to'siqsiz etib keladi.

Bizning holatda vegetatsiya indeksini aniqlashning eng maqbul davri iyul oyiga to'g'ri keladi. Olingan natijani taxlik qilsak, viloyatning dehqonchilikda foydalaniladigan erlarida vegetatsiya indeksi ko'rsatkichi yuqori, cho'llarga tomon pasayib boradi. Sulton Uvays past tog'larida esa bu davr o'simlik qoplamisiz bo'lgan (1-rasm).

Vegetatsiya indeksining 0,1 va undan kichik miqdorlari hosildorlik ko'rsatkichiga ega bo'lmagan toshli, qumli hududlarni (nazariy jihatdan qorli hududlarni ham) ifodalaydi. 0,2-0,3 ko'rsatkich esa butazor va o'tloqlarni, bizning tadqiqotimizda esa sug'orib dehqonchilik qilinadigan hududlarning katta qismini ko'rsatdi. SHu bilan birga 0,6-0,8 mo'tadil va tropik o'rmonlarni ifodalasa, viloyat hududida to'qayzolar, bog'dorchilik va daraxtsimon o'simliklarning tarqalgan hududlarini belgilab berdi.

Izlanish natijalarida quyidagi xulosalarga kelindi:

Viloyat hududi tasvirlangan har ikkala sur'atlarning olingan vaqti turlichaligi sababli radiatsiya va aks etish miqdorlari orasida farq mavjud bo'lib, ular ustida radiometrik to'g'irlash ishlarini olib borish maqsadga muvofiq. Bu holatda tadqiqot objekti bo'yicha bir xil natijalar olish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Vegetatsiya indeksi o'simlik qoplamining eng zich yoki yaxshi rivojlangan davridagi sur'atlarda maksimal vegetatsiya indeksini aniqlash imkonini beradi. SHu bilan birga, tadqiqot maqsadi va tadqiqotchining bilimlari doirasida zaruriy davrdagi sur'atlar tahlilga olinishi mumkin.

Bu usul orqali hududlar o'simlik qoplamini davriy va hududiy solishtirish, cho'llarni chorvachilik nuqtai nazaridan baholash va h.k.larni amalga oshirish mumkin.

Respublikamizning agroindustrial imkoniyatlarini nuqtai nazaridan teGATHli geografik fanlar bo'yicha amaliy dars mashg'ulotlari mavzulariga vegetatsiya indeksini aniqlash usulini kiritish maqsadga muvofiq.

Tabiiy geografik tadqiqotlar obyektining o'ziga xos vertikal va hajm chegarasi mavjud bo'lib, uning eng kichik birligi tabiiy geografik rayon sifatida qaralgan (Milkov, 1967). Bugungi kunda esa O'zbekistonda tabiiy geografik tadqiqotlarning objekti kichik ekotizimlar, jumladan voha, ko'l, to'qayzorlar darajasiga etib kelgan bo'lsa, g'arbda bu chegara mikroskopik darajagacha tushishi mumkinligi ko'rsatiladi (Robert E. va boshq., 2009). Bu o'lchamdagi tadqiqot ishlarning aksariyat

qismi, jumladan vohalarda, administrativ yoki muayyan fenomen doirasida amalga oshirilgan, ammo yaxlit geografik yoki ekologik tizim sifatida qaralmagan (Matchanov 2009; Avezov, 2010). Qolgan tadqiqotlarda esa voha chegaralarini aniqlashdagi qiyinchiliklar sababli turlicha qarashlar shakllangan va uning aniq konturi keltirilmagan (Allaberganov, 1976). Ma'lumki, Xorazm vohasi Markaziy Osiyoning eng qadimiy madaniyat va dehqonchilik markazlaridan biri bo'lib, ko'plab geografik va agro-ekologik izlanishlar uchun tadqiqot obyekti vazifasini o'tab kelmoqda (ZEF, 2002). Fikrimizcha, uning yaxlit bir tizim, majmua sifatida o'rganilishi muammolar echimiga optimal yondashish imkonini beradi.

Ushbu maqolada voha chegaralarini kosmik sur'atlar yordamida, uning keng ishlatiladigan terminlari asosida belgilashga harakat qilindi. Jumladan, voha – cho'l va chala cho'llarda obod qilingan yer bo'lib, unda atrofdagi hududlarga nisbatan ko'p: yer osti suvlari yuza bo'lib, buloqlar chiqib yotadi ... daryo, ko'l, quduqlardan suv ichadi (Entsiklopediya, 1972). Gvozdetsskiy va Mixaylovlar (1978) vohalarni daryo terrasa va deltalarining allyuvial yotqiziqlari chekkalarida tuproqlari unumdor (gilli), suv o'tkazuvchanligi yaxshi (qumli va qumoq) bo'lgan, dehqonchilikda foydalaniladigan hududlar sifatida ta'riflaydilar. Ingliz tilidagi manbalarda ham voha sifatida cho'llardan o'simlik qoplami bilan ajralib turuvchi, buloq, yer osti va daryo suvlari bilan sug'oriladigan hududlar ko'rsatiladi (wikipedia, Geographical Online Dictionary). YUqoridagi holatlarni umumlashtirib, yer osti va daryo suvlari natijasida dehqonchilik qilinadigan, atrofidagi cho'lli yoki boshqa hududlarga nisbatan namgarchilik yuqori bo'lgan, yashil hududlarni voha sifatida qarash o'rinli deb hisoblaymiz. Bunday holatda, *vohaning chegarasini yashil o'simliklarning suv omili natijasida doimiy rivojlanadigan joylardan o'tkazilishi* maqsadga muvofiqdir.

Yer yuzasining o'simlik qoplami tadqiq qilish aerokosmik tadqiqot usullarining eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, u quyosh nurlarining o'simliklarni yutishi va aks etishi qonuniyatiga asoslanadi. G'arb tadqiqotlarida bu jarayon vegetatsiya indeksi kabi talqin qilinib, "ArcView" daturining maxsus buyruqlar paneli yordamida aniqlanadi (<http://earthobservatory.nasa.gov/Features/MeasuringVegetation>).

Tadqiqotchilarning izlanishlarga ko'ra vohada yer osti suvlari sathining yer yuzasiga eng yaqin keladigan davri iyul va avgust oylariga to'g'ri kelib (ZEF, 2002; Eshchanov, 2008), bu holat havo haroratining yuqoriligi sababli dehqonchilikda Amudaryo suviga ehtiyojning ortishi, bahorgi bostirib sug'orish natijalari va h.k.lar bilan izohlanadi. Sun'iy yo'ldosh sur'atlarida iyul oyining yarimiga qadar ekin dalalarida ishlatiladigan irrigatsiya suvi ekinlar endigina rivojlanayotgan hududlarda suv havzalari kabi aks etadi. SHu sababli iyul oyining oxiri va avgust oylaridagi sur'atlarni tahlilga olish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, iyul oxiri va avgustda voha yer yuzasi o'simlik qoplami bilan dyarli (kuzgi bug'doyga mo'ljallangan yerlardan tashqari) to'liq qoplanadi, yog'ingarchiliksiz mavsumligi sababli quyosh radiatsiyasi yer yuzasiga to'siqlarsiz etib keladi. Shunday qilib, yuqoridagilarga asoslangan tarzda Landsat sun'iy yo'ldoshining 3 (qizil-red) va 4 (infraqizilga yaqin-near infrared) diapozonlaridagi sur'atlari zaruriy yillar bo'yicha o'rganildi. Voha hududi ikkita sur'at hududida tasvirlanadi deb tahmin qildik. Milliy Aeronavtika Fazo Agentligi (NASA) bazasidan har ikkala sur'atning ham bulutsiz, sifati yaxshi bo'lgan davrlari; 1987, 1998 va 2010 yillar tahlil qilindi.


1980-yillardagi vegetatsiya indeksining holati 05 va 12 avgustdagi suratlar bo'yicha aniqlandi. Chunki, faqatgina avgust oyida olingan sur'atlarda bulutlilik darajasi 0% bo'lib, qolgan vaqtlarda voha hududining u yoki bu qismi uchun tasvir yaxshi aks etgan sur'atlar bazada mavjud emas. Bu holat 1998 yildagi sur'atlarda ham kuzatilganligi sababli 03 va 26 avgustdagi ma'lumotlar o'rganildi. "ArcView" dasturi yordamida 03.07.-10.07.2010 yildagi, bulutlilik darajasi 0% va sifati 9-daraja bo'lgan, sur'atlarining vegetatsiya indeksi aniqlandi. YA'ni, 1987 va 1998 yillar uchun avgust, 2010 yil uchun esa iyul oyidagi sur'atlar tahlilga olinib, yuqoridagi holatlar asosida ularning hammasi teng imkoniyatli deb qaraldi.

Olingan natijalarni tahlil qilganda 1998 va 2010 yillarga o'simlik qoplami cho'l hududlarida ham keng tarqalganini kuzatdik (1 b,c-rasm). SHu sababli uch yillik natijalarni ham 0.2 qiymatidan katta miqdorini – buta, ko'p yillik o'simliklar, qishloq xo'jalik ekinlari tarqalgan hududlarni umumiy konturini shakllantirdik (1 d,e,f - rasm). CHO'l o'simliklari va 0,2 miqdordan kichik ko'rsatkichni bergan o'simliklar – efemer yoki yog'ingarchilik mavsumida mavjud bo'ladigan, ya'ni yer osti va daryo suvlarining ta'sirisiz rivojlangan o'simliklarni voha chegaralarini aniqlash uchun ishlatmadik. Bunday holatda 1987 yilda voha hududi 17332 km<sup>2</sup>, 1998 yilda 19861 km<sup>2</sup> va 2010 yilda 20641 km<sup>2</sup>ni tashkil etadi.

Karta-sxemalarda ko'rganimizdek, 2010 yilgi voha chegarasi boshqa ikki yilga nisbatan katta bo'lgan. Buni keyingi yillarga kelib ekin maydonlarining kengayishi va yer osti va irrigatsiya suvlaridan qishloq xo'jaligida keng foydalanish bilan izohlash mumkin.

Izlanish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- Voha yer osti va usti suvlari rejimi o'simlik olamining o'sib rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi va uning tabiiy geografik chegaralarini aniqlashda asosiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.
- Tahlillar natijasi vegetatsiya indeksining voha hududlarida avgust oyida yaxshi namoyon bo'lishini ko'rsatdi.
- Voha chegaralari davriy o'zgaruvchan bo'lib, suv resurslarining ta'minoti uning chegaralari o'zgaruvchanligiga katta ta'sir ko'rsatadi.



- Taqdim qilingan voha konturini shakllantirish tartibi ilmiy ishlarda foydalanish uchun xizmat qiladi, ammo tadqiqotlarning maqsadiga bog'liq holda voha konturi tanlangani va ko'zda tutilgan yil uchun alohida tuzilgani maqsadga muvofiq.

- Xorazm vohasi tabiiy geografik chegaralari o'rganilgan kosmik ikkita sur'atlar chegarasidan chiqib ketishi ma'lum bo'ldi. SHu sababli ushbu masala Sariqamish botig'i va Ustyurt platolarigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan 4-6 ta Landsat TM dasturi sur'atlarini tahlil qilish orqali o'z yechimini topadi. Bu esa mavzu yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini yana davom ettirish lozimligini ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Safarov E.Yu. Geografik axborot tizimlari – T.: Universitet, 2010.
2. Safarov E.Yu. Geografik axborot tizimlari. Amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma – T.: Universitet, 2007.
3. Бугаевский Л.М., Цветкова В.Я. Геоинформационные системы. –М.: 2000. – 222 с.
4. Жургин И.Г., Шайтура С.В. Геоинформационные системы. –М.: КУДИЦ-ПРЕСС, 2009. – 272 с.
5. Safarov E.Yu., Abduraxmonov S.N., Vozorov M.M., Abduraximov X.A. Georafik axborot tizimlari. Uslubiy qo'llanma. – Qarshi: QarMII, 2010. – 40 b.
6. Kang Tsung Chang. Introduction to geographic information systems. New-York. – The McGraw-Hill company, Inc. – 400 page.
7. Щербаков В.В. Геоинформационные системы. Структура ГИС, методы создания и использование. – Екатеринбург, 2002. – 33 с.
8. Xudoyberdiev A. Geoaxborot tizimlari. Uslubiy ko'rsatma. – Samarqand: SamDAQI, 2006. – 30 b.
9. Востокова Е.А. и др. Экологическое картографирование на основе космической информации. -М., Недра, 1988.
- 10.«Основные показатели охраны природы и рационального использования природных ресурсов республики Узбекистан за январь декабрь» (статический бюллетень) -Т., 2002.
- 11.Стурмен В.И. Экологическое картографирование. –М.: МГУ, 2003.
- 12.Шайтура С.В. Геоинформационные системы и методы их создания. -М.: 1998.
- 13.Гурьянова Л.В. Введение в ГИС. - Минск: БГУ, 2009.
- 14.Гурьянова Л.В. Аппаратно-программные средства ГИС. - Минск: БГУ, 2004.

### Internet saytlari

[http://ru.wikipedia.org/wiki/WGS\\_84](http://ru.wikipedia.org/wiki/WGS_84)  
[http://geolvgl.blogspot.com/2011/12/blog-post\\_05.html](http://geolvgl.blogspot.com/2011/12/blog-post_05.html)  
<http://www.oka-rusachok.narod.ru/ecology.html>  
<http://web.znu.edu.ua/lab/histdep/soc&manag/VII/GIS/lab/lab1.htm>  
<http://gisinecology.com/>  
<http://gisinecology.com/what-is-gis/>  
[https://www.researchgate.net/publication/228685580\\_GIS-based\\_modelling\\_and\\_ecology\\_A\\_review\\_of\\_tools\\_and\\_methods](https://www.researchgate.net/publication/228685580_GIS-based_modelling_and_ecology_A_review_of_tools_and_methods)  
<http://www.gistic.org/gis-usefulness-in-ecology/>  
<https://www.gislounge.com/conservation-biology-and-gis/>  
[http://geolvgl.blogspot.com/2011/12/blog-post\\_05.html](http://geolvgl.blogspot.com/2011/12/blog-post_05.html)

## NAZORAT UCHUN UMUMIY SAVOLLAR

1. Geografik axborot tizimlari (GAT) nima?
2. GATning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini yoritib bering.
3. GATning rivojlanish tarixini yoritib bering.
4. Koordinatalar sistemasi nima va GATda ulardan foydalanish?
5. Qatlamlar nima? Ularning ahamiyatini tushuntirib bering.
6. Ma'lumotlarni kiritish qanday tartibda amalga oshiriladi?
7. Digitayzer va undan foydalanish masalalarini yoritib bering.
8. Raster ma'lumotlar va undan foydalanish masalalarini yoritib bering.
9. Vektor ma'lumotlar va undan foydalanish masalalarini yoritib bering.
10. Uch o'lchamli model va uning ahamiyatini yoritib bering.
11. SRTM haqida nimalarni bilasiz?
12. Fazo kemalari va ularning ahamiyatini yoritib bering.
13. Kosmik ma'lumotlarni olish tartibi va usullari.
14. Geo-bog'lanish qanday usullar yordamida amalga oshiriladi?
15. GPS nima va uning ahamiyatini yoritib bering.
16. Atribut ma'lumotlar nima va ulardan qanday foydalaniladi?
17. Xavf-xatarni baholashda nimani tushunasiz?
18. Tabiiy resurslarni o'rganishda GATning ahamiyati.
19. Fazoviy ma'lumotlar bazalarining aniqliligida nimalarni tushunasiz?
20. Relefnı modellashtirish yo'llari haqida gapirib bering.
21. Vegetatsiya indeksini tushuntirib bering.
22. Vegetatsiya indeksini aniqlashning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.
23. Suv havzalarini o'rganish qanday amalga oshiriladi.
24. Aerokosmik usullar orqali suv bosishi xavfini qanday aniqlaymiz?
25. Aerokosmik usullar orqali cho'llashish jarayonini aniqlashni tushuntiring?
26. Aerokosmik usullar orqali suv yuzalarining ifloslanishini monitoring qilish masalalari.
27. Yerdan foydalanish va uni aerokosmik usullar orqali tadqiq qilish.
28. Sinflashtirish masalalari va ularning ahamiyati.
29. Aerokosmik sur'atlarda to'g'rilash ishlari.
30. Iqlimiy kartalarni tayyorlash masalalari.



## GLOSSARIY

- GAT (Geografik Axborot Tizimlari)** - bu avvalombor planetamizda sodir bo'layotgan voqea hodisalarni va fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish hamda deyarli har handay sohada qaror qabul qilish jarayonini tezlashtirish uchun yordam beradigan kartalar yaratish uchun xizmat qiladigan zamonaviy komp'ter texnologiyasidir. GAT ni hozirgi kunda zamonaviy komp'yuter texnologiyalarisiz tasavvur qilish mumkin emas, qanchalik tez kompyuter dasturlari rivojlanar ekan shunchalik tezlik bilan GAT ham rivojlanib boradi.
- Apparat vositalari** - bu GATni amalga oshirish jarayonida kerak bo'ladigan barcha vositalardir ya'ni kompyuter, plotter, dijitalyzer, printer, GPS va boshqa vositalardir.
- Dasturlar** - bu GATda fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish va kartalar yaratish uchun kerak bo'ladigan kompyuter dasturlaridir. Fazoviy (geografik) ma'lumotlarni kiritish, ularni tahlil qilish, ularni tushunarli ko'rinishda vizualizatsiya qilish, ma'lumotlar bazasini boshqarish va uni saqlash yo'llari, kerakli ma'lumotlarni tez vaqt ichida so'rash va hakoza kompyuter dasturlarini qandayligidan dalolat beradi.
- Ma'lumotlar** - bu GATning eng muhim belgilardan biri hisoblanadi desak mubolog'a bo'lmaydi. Fazoviy ma'lumotlar GATni amalga oshiruvchi tomonidan jadval ko'rinishda yoki foto surat ko'rinishida to'planishi mumkin. Yoki to'plangan fazoviy ma'lumotlar boshqa to'plangan fazoviy ma'lumotlar bilan birlashtirib tahlil qilinishi mumkin.
- Amalga oshiruvchilar** - Bu Insonlarni ishtirokisiz har qanday GAT tasavvur qilish qiyin, qaysiki insonlar barcha bo'layotgan jarayonlarni boshqarib boradi. GAT natijalari qanday darajada sifatli bo'lishi aynan insonni bilim mahoratiga va uni ishtirokiga bevosita bog'liq.
- Usullar** - Ko'p hollarda fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilishni va GAT ni natijalari tez yoki sifatli bo'lishi aynan qanday usullarni ko'llashga bog'liq.
- Axborot formatlari** - GAT bir-biridan farqli bo'lgan ikkita ma'lumot formatlari - "vektor" va "rastr" bilan ishlashi mumkin (4 rasm). Vektor formatda nuqtalar, chiziqlar va maydonlar to'g'risidagi axborotlar X, U koordinatalar to'plami tarzida kodlanadi va saqlanadi. Nuqtaning joylashgan o'rni (nuqtaviy obyektlar uchun), masalan quduqning, X, U **koordinatalar juftligi** bilan izohlanadi. CHiziqli obyektlar - yo'llar, quvurlar kabi, X, U **koordinatalar to'plami** sifatida saqlanadi. Maydon - yer uchastkalari, xizmat ko'rsatiladigan hudud kabi, **yopiq koordinatalar to'plami** sifatida saqlanadi.
- Ma'lumot kiritish** - Ma'lumotlarni GAT da ishlatish uchun bu fazoviy ma'lumotlar raqamli shaklga zga bo'lgan formatga keltirish kerak bo'ladi. Masalan, qog'ozda chizilgan kartalarni kompyuterga kiritish "*kartani raqamlashtirish deb ataladi*". Bu jarayonni yanada tezlashtirish uchun biz GATda skanerlardan foydalanish imkoniyatiga egamiz. Skanerdan boshqa bir vosita bu dijitalyzer deb nomlanadi.
- Manipulyatsiya** - Ma'lumotlar ustida ishlash. Biror bir loyihani bajarish jarayonida, ko'p hollarda, mavjud bo'lgan axborotlarni, qo'shimcha ravishda, sizning tizimingiz talablariga muvofiq ravishda, ko'rinishini o'zgartirish kerak bo'ladi. Masalan, turli tematik geografik axborotlar turli masshtablarda bo'lishi mumkin. Hamma axborotlarga birgalikda ishlov berish va vizualizatsiya qilish uchun ularni umumiy masshtabga olib kelish va yagona kartografik koordinatalar sistemasiga o'tkazish zarur.
- Ma'lumot so'rash va tahlil qilish** - GAT da mavjud fazoviy ma'lumotlar bazasidan bizga kerakli bo'lgan ma'lumotni so'rab topishimiz mumkin. Savolar oddiydan tortib to kompleks savollarga borib taqaladi. Masalan *u yoki bu erni egasi kim*, ikkita obekt orasidagi masofa qanchani tashkil etadi, ma'lum bir tahlilni talab qiladigan murakkab so'rashlarga esa, yangi *uy ko'rish uchun kaerda bo'sh yer mavjud*.
- Masofadan turib ma'lumot (Remote Sencing)** - Masofadan kuzatish yoki ma'lumot yig'ish bu avvalombor u yoki bu fazoviy obyekt bilan to'g'ridan to'g'ri aloqada bo'lmay turib ma'lumot yig'ish yoki yerni kuzatish ilmi yoki san'atidir. Bu jarayon refleksiya bo'layotgan yoki sochilib chiqayotgan energiyani yozish va aniqlash hamda yozilgan ma'lumotlar ustida ishlash, tahlil qilish va tayyor ma'lumotdan foydalanish.

**Geografik Inforatsion Sikl** - Axborot, ma'lumot to'plash. Bu jarayon o'z ichiga to ma'lumot to'plashdan tortib to bu ma'lumotlar ma'lum bir jadvallar tizimiga keltirgunga qadar davom etadi. YA'ni to'plangan ma'lumotlar ma'lum bir talablarga javob beradigan bo'lishi zarur.

**Integratsiya** - bu jarayon ikkinchi darajali ma'lumotlar ustida ishlash, ularni tahlil qilish, ularni manupulyatsiya qilishni o'z ichiga oladi. Ana shu jarayonni qanday tartibda amalga oshirilishi uchinchi darajali ma'lumotlarni sifatiga ta'sir etadi.

**Realizatsiya** - bu jarayon o'z ichiga uchinchi darajali ma'lumotlar bazasini ma'lum bir maqsadlarda real dunyoda ishlatilishi tushuniladi.

**Geografik so'rov va tahlil** - GATda axborotlar bazasidan kerakli axborotni izlash va geografik so'rovni amalga oshirish imkoniyati dunyoda ko'pgina kompaniyalarga millionlab dollar mablag'ni tejash imkonini bergan. GAT klientlarning talabiga javob berish vaqtini qisqartiradi; zarur tadbirlar o'tkazish uchun to'g'ri keladigan hududlarni aniqlash; turli parametrlar orasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash (masalan tuproq, iqlim va ekinlarning hosildorligi); elektr tarmog'i uzilgan joylar va h.k.

**Tashkilot ichida integratsiyani yaxshilash** - GATdan foydalanuvchi ko'p tashkilotlar shunga amin bo'lishdiki, uning asosiy afzalliklaridan biri shuki, u ham bo'lsa mavjud axborotlarni geografik birlashtirish asosida o'z tashkiloti va uning resurslarini boshqarishni yaxshilash imkoniyatini berishida. Tashkilotning turli tarkibiy bo'linmalari tomonidan axborotlar bazasidan birgalikda foydalanish va uni uzluksiz kengaytirib borish, har bir bo'linma ishini yaxshilash bilan birgalikda, butun tashkilotni ishini ham yaxshilaydi.

**Analiz** - (yunoncha – analisis – parchalash, bo'lish) narsa hodisalarni fikran tarkibiy qismlarga ajratishdan iborat bo'lgan aqliy jarayon. A. jarayonida butunning bo'laklarga nisbatan munosabati aniqlanadi.

**Geografik bashorat** —geografik tadkikotlardagi eng yangi yo'nalish. G. b- ning maksadi tabiiy sharoit bilan axolining xujalik faoliyati urtasida uzaro ta'sir natijasida geogrfik komplekslarda ruy beradigan uzgarishlarni tadkik, kilish va ularni oldindan aytib berishdir. J. b. tabiiy , iktisodiy va sotsial geografik demografik (axoliga boglik, bashorat) va ekologik yo'nalishlarda buladi. J. b. ilmiy dalillarga asoslanadi. Bular tarixiy dalil, jarayonlarni urganish xulosalari, takkoslash, tabiat komponentlarining barkarorligi, umumiy jugrofiy konuniyatlar va bohkalar.

**Gipoteza** - (yunoncha hupotesis - asos, taxmin) tabiat, jamiyat va inson tafakkuri sohasidagi muayyan hodisani to'lik tushuntirish yoki isbotlashi uchun yetarli dalillarga ega bo'lmagan ilmiy faraz, taxmin. G. ilmiy tekshirish metodlaridan, voqelikni bilish shakllaridan biridir.

**Deduktsiya** - (lot.deductia - keltirib chiqarish) umumiydan yakkaga qarab borish yoki bir qancha ma'lum umumiy hukumlardan yangi - yakka bir hukm keltirib chiqarishdan iborat xulosa chiqarish turi, mantiqiy tafakkur shakli. Masalan: iqlim, umumiy holda ta'riflanib, keyin iqlim tiplari ko'rib chiqilishi va h.k.

**Didaktika** - (yunoncha didacticos – o'rgatuvchi) Pedagogikadagi talim nazariyasining qonun va qoidalarini o'rganuvchi soha, ta'lim nazariyasi haqidagi fan.

**Dunyoqarash** - Shaxsning voqelik, atrof-muhitga bo'lgan munosabatini ifodalovchi tasavvur, tushuncha hamda qarashlar sistemasi, qishilarning ilmiy falsafiy, huquqiy, ma'naviy, nafaqat diniy e'tiqodlari yig'indisi. Dunyoqarash inson faoliyati va xulqining muhim yo'nalishini belgilab beradi.

**Jamiyat** - jamoalarning bo'linishi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy birlik. Jamoadan farqli o'laroq odatda alohida a'zoldan (individlardan) iborat.

**Jamoa** - organik aloqalar bilan bog'langan odamlarning tabiiy birligi shakli. U organik aloqalar o'rniga individlard o'rtasidagi rasmiylashtirilgan shartnoma me'yorlari bilan boshqariladigan jamiyatga zid tushuncha. Jamiyat urf-odat, an'analar bilan boshqariladi.

**Induktsiya** - (lot. Induction - keltirib chiqarish) uzviy yoki yakka hollardan umumiyga, ayrim faktlardan umumlashmalarga qarab boradigan xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur shakli. Mas. O'rta Osiyo daryolariga xos xususiyatlar Amudaryo, Sirdaryoga

oid ma'lumotlardan boshlab keyin O'rta Osiyo daryolariga xos bo'lgan xususiyatlar aniqlanadi.

**Induktiv xulosalash** - Ikki va undan ortiq yakka hukmlarning bir-birisi bilan mantiqiy bog'lanishdan umumiy hukm hosil qilishdan iborat xulosa chiqarish turi. Mas: Volga Kaspiy dengiziga quyadi, Bering bo'gozi Rossiya va AQShni ajratib turadi.

**Integratsiya** – geosiyosatda bir nechta hududiy bo'laklarni birlashishni ifoda etuvchi ko'pqirrali shakl. Integratsiya harbiy bosqinchilik yo'li bilan ham, tinch yo'l bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Geosiyosiy integratsiyaning bir qancha – iqtisodiy, siyosiy, madaniy, til, strategik, diniy va hakoza yo'llari mavjud. Ularning barchasi yagona mazmundagi yakuniy natijaga – blokning strategik jihatdan yuksalishiga va hududiy jihatdan kengayishiga olib keladi.

**Konkretlash** - (lot.koneretus - quyuq, qattiq) umumiy, mavhum belgi yoki xususiyatlarni yakka ob'ektlarga tatbiq etish bilan ifodalanadigan aqliy jarayon.

**Kuzatuvchanlik** - Shaxsning kuzata bilish qobiliyatidan iborat individual xislati. Kuzatuvchi odam narsa va hodisalarni tez to'g'ri idrok qilibgina qolmay, ularning o'zgarishlarini ham tez payqaydi. Ob-havoni kuzatish, fenologik kuzatish, gidrologik kuzatish va h.k.

**Laboratoriya experimenti** - (loborare-ishlamoq, experumentum - sinab ko'rish, tajriba) Geografik, didaktik, metodik tadqiqotlarni tekshirib ko'rishdan iborat jarayon. Odatda laboratoriyalarda hodisalar uy sharoitida tekshirilib, keyin umumiy xulosa qilish uchun zamin yaratiladi.

**Metod** - (yunon. metodos tekshirish yo'li) Tabiat hodisalarini tekshirish usuli o'rganilayotgan hodisalarga yondashishi, ilmiy bilishning va haqiqatni anglashning rejali yuli. Harakat usuli yoki tartibi. Dunyoni bilishning, uni o'zlashtirishning birdan-bir izchil holati.

**Motiv** - (lot. Moveo – harakatlantiraman) odamni muayyan hatti harakatlariga undaydaygan bosh sabab. Odamni faoliyatga undovchi asosiy sabab uning ehtiyojlaridir. Ehtiyojlar turiga qarab motiv har-xil bo'ladi. Motivlar mazmuniga ko'ra ham farqlanadi.

**Reproduktsiya** - Ongda mavjud narsalarni qayta tiklash yoki esga tushirishdan iborat xotira jarayoni.

**Suhbat metodi** - Geografik tadqiqotlarning ilmiy tekshirish metodlaridan biri. Tekshiruvchi va tekshiriluvchi o'rtasida savol-javob tariqasida roy beradi. Suhbat metodi tekshiruvchi tekshiriluvchi o'rganiladigan muammoning tabiatiga muvofiq oldindan tayyorlab qo'yilgan savollar berib, ularga javoblar oladi. Suhbat jarayoni protokollashtirilib boriladi.

**So'rovnoma usuli** - Tekshiruvchiga oldindan tayyorlangan savollar tarqatib, ularga teGATHli yozma javoblar olishdan iborat ilmiy tekshirish metodi. Anketa usulda tekshiruvchining bilimi, individual xususiyatlari dunyoqarashi, e'tiqodi o'rganiladi va h.k.

**Taqqoslash** - Bilish ob'ekti hisoblangan narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni yoki farqlarni, tenglik yoki tengsizliklarni, ayniyat yoki ziddiyatlarni aniqlashdan iborat aqliy jarayon. Taqqoslash bilishning dastlabki va zarur vositasi bo'lib, boshqa tafakkur jarayonlari bilan ham uzviy bog'liq.

**Umumlashtirish** - Fikr ob'ekti hisoblangan narsa va hodisalarning o'xshash hamda muhim belgilari, bog'lanishlarini, fikran bir tushunchaga birlashtirishdan iborat aqliy jarayon. Mas: qovuntarvuz, bodring, qovoq kabilarga xos belgilar polizchilik tushunchasi bilan umumlashtiriladi.

**Umumiy tasavvur** - Bir-biriga o'xshash narsalarning butun turiga yoki jinsiga xos bo'lgan tasavvur turi.

**Usul** - Metodning alohida detallari. Umumlashtiruvchi suhbat – o'quvchilarni xulosalar qilishga o'rgatish jarayoni geografik taassurot va bilimlarni tartibga soladi.

**Xulosa** - Ikki va undan ortiq hukmlarning bir-biri bilan mantiqiy bog'lanishi natijasida kelib chiqadigan uchinchi bir hukumdan iborat aqliy maxsul.

**Abstraktsiya** – ma'lumotlarni to'plash va boshqarish orqali umumlashtirish va bashorat qilish orqali «real dunyo» dan harakatning ta'siri.

**Faol sensorlar** - bu elektromagnit nurlanish chiqaradi va Yer yuzasidan tarqalib ketadigan nurlanish miqdorini qayd etadi.

**ANOVA** – (Analysis of Variance) – o'zgarish tahlili bu o'rganilayotgan ma'lumotlarning o'zgarishi turli o'zgaruvchanlikni tushuntirishi mumkin bo'lgan turli xil manbalarga mos keladigan qismlarga bo'linadigan usul.

**ASCII** - American Standard Code for Information Exchange is the 'translation' of characters into numbers that the computer will 'understand'. When an ASCII format is required, this normally means a plain text without formatting, i.e. no bold or underlined texts, no bullets or borders.

**ASCII** – (American Standard Code for Information Exchange) – Ma'lumot almashish uchun Amerika standart kodi - bu kompyuter tushunadigan raqamlarga belgilarning "tarjimasi". Agar ASCII formati talab qilinsa, bu odatda oddiy formatlashsiz matnni anglatadi, ya'ni qalin yoki tagiga chizilgan matnlar, o'qlar va chegaralar yo'q.